

## O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA QO'LLANILADIGAN INTEGRATIV METODLAR

*Mahkamova Dilafruz*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Ta'lim menejmenti kafedrası o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar, mazkur metodlardan foydalanish mexanizmlari, kasbiy shakllanish jarayoni, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda kasbiy ijtimoiylashuvning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: kasb, kasbga yo'naltirish, kasbiy ijtimoiylashuv, o'quvchi, maktab, kasbiy shakllanish, tamoyil, usul, kasbiy mahorat.*

## ИНТЕГРАТИВНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ НАПРАВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИИ

*Махкамова Дилафруз*

*преподаватель кафедры управления образованием Коканского государственного педагогического института.*

*Абстракт. В данной статье рассматривается уровень подготовки студентов к выбору профессии, интерактивные методы, используемые в профориентационной работе, механизмы использования этих методов, процесс профессионального становления, значение профессиональной социализации в профориентационной работе студентов.*

*Ключевые слова: профессия, профориентация, профессиональная социализация, студент, школа, профессиональное становление, принцип, метод, профессиональные умения.*

## INTEGRATIVE METHODS USED IN DIRECTING STUDENTS TO PROFESSION

*Mahkamova Dilafruz*

*teacher of the Department of Educational Management of the Kokan State Pedagogical Institute.*

*Abstract. This article discusses the level of preparation of students for choosing a profession, the interactive methods used in career guidance, the mechanisms of using these methods, the process of professional formation, the importance of professional socialization in the career guidance of students.*

*Key words: profession, career orientation, professional socialization, student, school, professional formation, principle, method, professional skills.*

*Kirish. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ilk kasbiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Kasbiy madaniyatda hamisha uni shakllantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'ladi va u g'oyalar, bilimlar, inson maqsadlarining ramziy ifodasidir. G'oyasiz, bilimsiz, maqsadsiz, kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma'naviy madaniyat mahsuli esa moddiy shakldagina o'z ifodasini topadi, shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy, kasbiy faoliyatga ko'chadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytish mumkinki, kasb madaniyatining har qanday tashqi ifodalanishini insonning rivojlanish yoki kamoloti darajasini ko'rsatadi.*

*Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi[2].*

*Adabiyotlar tahlili. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. O'quvchilarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham*

o'quvchilarni kasblarga doir bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz[2].

Kasb-hunarta'limini tashkilotish bo'yicha soha olimlaridan N.A. Muslimov va R.G. Mullaxmetovlarning fikricha: "mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradigan faoliyat"[3] ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonining shakllanishi, rivojlanishi va uning amaliy faoliyatda o'z o'rnini topishi boshqa faoliyatlar (kasblarga oid bilimlarga ega bo'lishi, tegishli uslublar bilan qurollangan bo'lishi, umumpedagogik tamoyillar va metodlar hamda ularning tashkiliy jihatlarni o'zlashtirgan bo'lishi va shu kabilar) bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi va bu bog'liqlik negizida o'quvchilarni kasbga tayyorlashga oid motivlar hamda tamoyillariga asoslangan holda ularni kasbga tayyorlash faoliyatining asosiy komponentlari (kasbiy ong, kasb e'tikasi, kasb mas'uliyati, kasbiy munosabat, kasbiy tarbiyalanganlik va shu kabilar) haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish samarali kechadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning hozirgi bosqichida integratsiya g'oyasi XXI asr shakllanishining eng muhim uslubiy tamoyiliga aylanmoqda. Boshqacha qilib aytganda, kasbga yo'naltirishda integratsiya ilmiy bilimlarni birlashtirish tendensiyasiga bog'liq ravishda rivojlanmoqda. Kasbga yo'naltirishda integrativ yondashuv – bu o'quvchilar tomonidan bir nechta fanlarga xos bo'lgan umumiy universal qoidalar, belgilar, xususiyatlarni o'zlashtirish jarayonini o'z ichiga olgan qoidalardan biri bo'lib, fanlarning bir-biriga yaqin tushunchalarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Integrativlik ilgari mustaqil ravishda ishlaydigan qismlarning bir butunga uyg'un kombinatsiyasi sifatida aniqlanadi. Shunga asoslanib, tarkibning integratsiyasi ma'lum funksiyalar va tuzilishga ega tizim, shuningdek, rivojlanishning turli bosqichlariga ega bo'lgan pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Ko'rib turganingizdek, hozirda "fanlararo aloqalar" tushunchasining aniq ta'rifi yo'q. Fanlararo aloqalar fenomeni bo'yicha turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish uning noaniqligi va ko'p funksiyaliligini ko'rsatadi.

N.S. Serdyukova integratsiya differentsiatsiya jarayoni bilan birga yuzaga keladigan fanlarning yaqinlashuvi va aloqasi jarayoni – bu ta'limning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning yuqori shakli ekanligini ta'kidlaydi[4].

G.F. Fedorets esa, integratsiya – bu "tabiat qonunlarining universalligi va birligi, subyekt tomonidan atrofda dunyoni idrok etishning yaxlitligi asosida ta'lim mazmunini tashkil etishning etakchi shakli, deb ifodalaydi[5].

Pedagogikada integratsiyaning to'liqroq tushunchalari, bizning fikrimizcha, V.S. Bezrukova tomonidan berilgan[6]. Uning fikricha, tanlangan asoslarga qarab integratsiyaning quyidagi ta'riflarini, xususan pedagogik ta'riflarni tuzish mumkinligini kuramiz:

integratsiyaning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan yangi tarkibiy va funksional monoobyektda ta'lim bosqichlari va bo'limlarini o'zaro bog'lashning eng yuqori shakli sifatida;

o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini faollashtirishga yordam beradigan pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadlari, mazmuni tamoyillari, usullari, shakllari va vositalarining mazmunli birligining eng yuqori shakli sifatida;

pedagogik jarayonda o'quv dasturining turli tarkibiy qismlari va bo'limlarini birlashtirgan kengaytirilgan didaktik birliklarni modellashtirish sifatida va h.k.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda integrativ metodlar samarali natija berib, o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlarini o'z mazmunida qamrab oladi. Quyida ayrim integrativ metodlardan namunalar keltirilgan.

"Ayollar kasbi-erkaklar kasbi" metodi

Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarida qaysi kasbni tanlash va tanlamaslik bo'yicha aniq tasavvurlar shakllangan bo'ladi. Ba'zan jamiyatda shakllangan "yozilmagan qoida"lar o'g'il bolalar va qizlarning qobiliyatiga qarab emas, aynan jinsiga bog'langan holda kasb tanlashini taqozo etadi. Bu esa o'quvchi-yoshlarda muhokama qilinmasdan, mazkur "yozilmagan qoida"larni qabul qilishini kuzatish mumkin bo'ladi[9].

O'quvchilar kichik guruhlarda "ayollar va erkaklar kasblari" ro'yhatini shakllantiradi. "Erkaklar kasblari"ga mazkur kasblar bilan ayollarning shug'ullanishi mumkin bo'lgan variantlar va imkoniyatlarni yozib chiqadilar. Xuddi shuningdek, "ayollar kasblari" ro'parasiga erkaklar shug'ullanishi mumkin bo'lgan variant va imkoniyatni yozib chiqadilar.

Shundan so'ng o'quvchilar natijalarni muhokama qilishadi. "Erkaklar va ayollar kasblari"ga bo'linishining ijobiy va salbiy jihatlarini keltirib o'tadilar. Metoddan maqsad kasblarning norasmiy ravishda bunday sinflanishi jamiyatda shakllangan ijtimoiy ong mahsuli ekanligi, qobiliyat, qiziqish bo'lgan taqdirda kasblarni egallashga rasmiy taqiq yo'qligini anglashga undashdan iborat.

Mashg'ulot turi: kichik guruhlarda ishlash, jamoaviy ishlash.

Mashg'ulot maqsadi: o'quvchilarning kasbiy spektrini kengaytirish; kasbiy imtiyoz va imkoniyatlarni anglash; genderga xos mehnat taqsimoti, uning sabablari va oqibatlarini haqida xabardorlikni oshirish.

Metodning tavsifi: sinf o'quvchilari har bir guruh 4 o'quvchidan iborat guruhlariga bo'linadi. Guruh o'quvchilari bitta qog'ozga ayollarga xos bo'lgan kasblar, boshqa qog'ozga erkaklarga xos bo'lgan kasblar ro'yhati shakllanadi. O'quvchilar guruhlarda ishlayotganda o'qituvchi turli yordamchi savollar bilan o'quvchilarni fikrlashga va ko'proq kasblarni yozishga undashi mumkin. Misol tariqasida "oilada, qarindoshlar orasida qanday kasb egalari bor?", "jamoat joylarida, televizorda qanday kasb egalarini ko'rgansiz?" kabi savollar bilan yo'naltirib turadi. Kichik guruhlarda ikkala ro'yhat shakllanib bo'lgandan so'ng, ayollar kasbi yozilgan ro'yhatga erkaklar shug'ullanish imkoniyatini tahlil qilishadi. Shuningdek, erkaklar kasblari ham xuddi shunday tahlil qilinadi.

Jamoadam ishlash orqali kichik guruh natijalari taqdim qilinadi va jamoaviy muhokama o'tkaziladi. Muhokamada quyidagi savollar muhokama qilinishi mumkin:

Barcha kasblar ro'yhatga kiritilganmi? Buni tekshirish uchun "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi"da keltirilgan ro'yhatni ko'rib chiqish tavsiya etiladi (<http://www.kasbtanla.uz/klassifikator/index>).

Nima uchun ayrim kasblar faqat ayollarga xos?

Ayollar va erkaklar kasblarining farqi nimada?

Ayollarning erkaklar kasbi bilan shug'ullanishiga doir holatlarni bilasizmi? Afzalliklari va qiyinchiliklari nimada?

Kasblarning shunday guruhlanishiga Sizning fikringiz qanday?

Tayyorgarlik / Kerakli materiallar: flipchart, rangli plamasterlar, internetdan foydalanish imkoniyati yoki kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi.

Didaktik ko'rsatma: pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayol-qizlarda kasb bo'yicha tushunchalar, qarorlar erkaklarga nisbatan erta shakllanadi. Jamiyatda ayrim kasblar bo'yicha ma'lumotlarning kamligi yoki etarli ravishda targ'ib qilinmagani hisobiga ba'zan o'z qobiliyati, qiziqishiga mos kelmagan va jamiyat tomonidan qabul qilingan "ayollar kasbini" tanlashdan boshqa imkoniyat qolmaydi. Qizlarda "erkaklar kasbi"ga qiziqishi kasbning o'ziha xos talablari, ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirish bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Maqsadli guruh: 10-sinf o'quvchilari.

Davomiyligi: 1 soat 30 minut.

"Karyera yo'lidagi to'siqlar" metodi

O'quvchilarning kasb tanlashi, qaror qabul qilishi va kasbiy karyera haqida rejalar tuzishi muammolarsiz va qiyinchiliksiz amalga oshmaydi. Buning uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida mazkur muammolar va qiyinchiliklar bo'yicha suhbatlashish va ikkilanishlarni oldini olish muhim hisoblanadi. Bir tomondan, to'siqlar va qiyinchiliklarni qabul qilish emas, balki faol ravishda echimlarini topish lozim. Kasb tanlash, qaror qabul qilishga doir qo'rquv, ikkilanish vaziyatlarini keskinlashtirmasdan, tizimli hal qilish, tahlil qilish orqali o'quvchilarni o'ziga bo'lgan ishonchi rivojlantiriladi.

Mashg'ulot turi: kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yin, simulyatsiya qilish, jamoaviy muhokama.

Mashg'ulot maqsadi: o'quvchilarni kasb tanlash, qaror qabul qilish va karyera rejalarini bilan bog'liq qiyinchilik va to'siqlarni "qabul qilib olish" emas, balki ularga ta'sir qila olish bo'yicha strategiyalar shakllantirish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Metodning tavsifi: sinfdagi o'quvchilar 4 kishilik kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh flipchart qog'oziga musicha rasmini chizadi. Bu erda musicha "biror narsadan tez qo'rqish", "tez taslim

bo'luvchi" atributini ifodalaydi. O'quvchilar "Aqliy hujum" metodi yordamida o'z tajribalari yoki kuzatishlari natijasida shakllangan kasb tanlash, qaror qabul qilish yoki karyera rejalari bilan bog'liq qiyinchilik va to'siqlarni elimlangan qog'ozga yozib, musicha rasmini atrofiga yopishtirib chiqadilar. Kichik guruh o'quvchilari biror qiyinchilik yoki to'siqni ifodalovchi rolli o'yin sahnalashtiradi va barcha sinf o'quvchilariga taqdim etishadi. Boshqa guruh o'quvchilari qanday qiyinchilik yoki to'siq ekanligini topishadi. Shundan so'ng jamoada mazkur vaziyatga echim izlanadi.

Tayyorgarlik / kerakli materiallar: plamasterlar, flipchart qog'ozi, elimlanadigan qog'ozlar.

Maqsadli guruh: 11-sinf o'quvchilari.

Davomiyligi: 1 soat.

"O'zim bilan shartnoma" metodi

Kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari o'quvchilarning kasb tanlashda siysiy mas'uliyat va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratishi zarur. O'quvchilarning kasb tanlashi individual xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayrim o'quvchilar individual yondashuvni taqozo etadi. O'quvchilarda mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish kasbga yo'naltirish faoliyatining asoslaridan biri hisoblanadi. Bu munosabatni rivojlantirish uchun o'ziga "mas'uliyat yuki"ni olishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kasb tanlashga doir mas'uliyat hissini rivojlantirish nafaqat suhbat asosida, balki shaxsiy tashabbus va javobgarlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Mashg'ulot turi: yakka tartibda ishlash, hamkorlikda ishlash.

Mashg'ulot maqsadi: o'quvchilarda mas'uliyat hissini rivojlantirish va ularning kasb tanlashda shaxsiy tashabbusini rag'batlantirish. Shuningdek, o'quvchilarning rejalashtirish, shaxsiy majburiyatini jiddiy qabul qilish xususiyatini rivojlantirish.

Metodning tavsifi: o'qituvchi har bir o'quvchining xohishiga ko'ra 1 varaqdan rangli qog'oz beradi. O'quvchilar o'zi bilan shartnoma tuzish uchun taklif qilinadi. Shartnomaning maqsadi keyingi o'n to'rt kun ichida aniq kasb tanlashga doir shaxsiy tashabbuslari, kuzatishlarini rejalashtirish, ularni amalga oshirish vositalari, natijalarini yozma shaklga keltirish. Shartnoma aniq va amalga oshirish mumkin bo'lgan faoliyatni qamrab olishi, shartnoma mazmuni barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Shuningdek, shartnomaning bir qismi sifatida uning bajarilishi natijasida rag'batlantirish ko'rsatiladi. Bu esa smaylik ko'rinishida keltirilishi mumkin. Shartnoma tayyor bo'lgacha o'z hamkori va o'qituvchi ishtirokida shartnoma imzolash tashkil etiladi. Belgilangan muddatda o'qituvchi, o'quvchi va hamkor o'quvchi bilan birgalikda shartnomaning bajarilishi bo'yicha suhbatlashadi va natijaga ko'ra rag'batlantiriladi.

Tayyorgarlik / kerakli materiallar: rangli qog'oz, ruchka.

Didaktik ko'rsatma: o'qituvchi shartnoma hamkori hisoblanmasa-da, shartnoma mavjudligi va uning sifatli bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etadi. Shartnoma o'quvchilarni nazorat qilish yoki ularga "bosim" o'tkazish emas, balki ularni tizimli o'z faoliyatini tashkil etish, mehnat faoliyatidagi elementlardan foydalangan holda mas'uliyat hissini rivojlantirish, har bir faoliyat bo'yicha qayta aloqa mavjudligini amaliy ravishda anglashiga yordam berishdan iborat.

Maqsadli guruh: 9, 10 va 11-sinf o'quvchilari.

Davomiyligi: 30 minut.

Xulosa. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning mazmuni keng va dinamik xususiyatga ega. Jamiyatda kasblarga qo'yiladigan ijtimoiy talablar muntazam ravishda o'zgarib borishi, ularni pedagogik yondoshib, fanlar mazmuniga singdirib borish lozim bo'ladi. Metodik jihatdan integrativlik o'quvchilarda kasbga doir tushuncha, tasavvurlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. – 14 b (156).
2. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. No5. – 90-93-b.
3. Муслимов Н.А., Муллахметов Р.Г. Касб танлашга тайёрлаш. – Т.: "IQTISOD – MOLIYA", 2007. – 205 б.
4. Buranova Sh.U. Dual ta'lim tizimida qishloq xo'jalik mashinalari fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish metodikasi / QarDU xabarlari, 2023, 2/1 son. – 144-147.
5. Сердюкова Н.С. Интеграция учебных занятий в начальной школе // Начальная школа, 2004. – № 11. – С. 45-49.
6. Федорет Г.Ф. Межпредметные связи педагогики с психологией. – Л., 2008. – 87 с.
7. Безрукова Б.С. В поисках перспективы // Советская педагогика, 2006. – № 9. – С. 68-72.
8. AK Girls' work in the network system "Labor market integration of disadvantaged people" in the Trier region: Methods of career orientation in girls' work, Trier. 1999. – P. 34-35.
9. Sacher K. "Career worth living" – practical guide for working with early school leavers, Berlin, Waxmann, 2015. – P. 26.
10. Rabenstein R., Reichel R., Thanhoffner M. The Method Set, 4th Reflect, 11th ed., Münster, 4. 2014. – P. 14.